

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



Ro'yxatga olingan № MDA - 70520202-2.02.  
2024 yil avgust

IJTIMOIIY EKOLOGIYA  
FANINING

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika  
Ta'lim sohasi: 520 000 – A'trof-muhit  
Mutaxassisligi: 70520202 – Ekologiya

Termiz - 2024

|   |
|---|
| 6. <a href="http://www.plantprotection.com">www.plantprotection.com</a>   |
| 7. <a href="http://www.msu.ru">www.msu.ru</a>   |
| 8. <a href="http://www.uznature.uz">www.uznature.uz</a>   |
| 7. Mazkur fanning o'quv dasturi Termiz davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2024-yil ___ avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayonnomasi bilan ma'qullangan.   |
| 8. <b>Fan/modul uchun ma'sullar:</b><br>M.B. Abramotov – TerDU, "Ekologiya va tuproqshunoslik" kafedrasi mudiri, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.<br>X.X.Zakirov - TerDU, "Ekologiya va tuproqshunoslik" kafedrasi professori, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor. |
| 9. <b>Taqrizchilar:</b><br>T.U.Rahimov - QarDU, "Agrokimyo va ekologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi, biologiya fanlari nomzodi<br>O.O.Amitov – O'R FA Zoologiya instituti Molekulyar zoologiya laboratoriyasi mudiri, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)        |

| Fan/modul kodi   | O'quv yili     | Semestr       | ECTS - Kreditlar        |     |
|--|----------------|---------------|-------------------------|-----|
| IEKO1204   | 2024-2025      | 2             | 4                       |     |
| Fan/modul turi   | Ta'lim tili    |               | Haftadagi dars soatlari |     |
| Tanlov fan   | O'zbek         |               | 4                       |     |
| Fanning nomi   | Auditoriya     | Mustaqil      | Jami                    |     |
|  | mashg'ulotlari | ta'lim (soat) | yuqulama                |     |
|  | (soat)         |               | (soat)                  |     |
| <b>I.</b>  |                | 60            | 60                      | 120 |
| <b>I. Fanning mazmuni</b>  |                |               |                         |     |
| <p>Fanni o'qitishdan maqsad-ijtimoiy ekologiya milliy boshqaruv tizimida o'z o'rnini va salohiyatiga ega bo'lgan sohasi hisoblanadi. O'z tartibiga solayotgan ijtimoiy munosabatlarning kengligi, murakkabligi, xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa huquq shtalaridan ajralib turadi. Ijtimoiy ekologiya-tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy omonidan tartibga solishni o'rganadi.</p> <p>Fanning vazifasi – atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmualarini qayta tiklash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solish va barqaror rivojlanishni o'rganishdan iborat.</p>  |                |               |                         |     |
| <b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b>  |                |               |                         |     |
| <b>1-mavzu. Tabiat va jamiyatning ilmiy va falsafiy konsepsiyasi mohiyati. Ijtimoiy ekologiyaning shakllanishi va rivojlanishi</b>   |                |               |                         |     |
| <p>Ijtimoiy ekologiya kursi bo'lajak mutaxassislarni inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatla, muammolari, jamiyatning Barqaror rivojlanishi sharoitlarini ta'minlash kabi muhim vazifalarni amalga oshirishni, biosferadagi ifloslanish, buzilishi va boshqalar haqida bilim berish, ulardan amaliyotda keng foydalanish imkonini beradi. Insonlarni hayot tarzi-ularni turmushi, mehnat qilishi, dam olishi, sog'liqni saqlash, oilaviy ahilligi, ijtimoiy qulayligi bularning hammasi hayotni va atrof muhitni sifaiga bog'liq.</p> <p>“Ijtimoiy ekologiya” fanini o'qitishda inson va uni o'rab turgan kosmoplanetar muhit bilan o'zaro ta'sir qonuniyatlarini o'rganiladi.</p> <p>Ekologiyaning rivojlanish tarixi. Ijtimoiy ekologiyaning predmeti va boshqa fanlarga munosabati. Ijtimoiy ekologiyaning asosiy qonunlari.</p> |                |               |                         |     |
| <b>2-mavzu. Insonning hayot muhiti va uning asosiy elementlari. Tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorlik tamoyillari.</b>  |                |               |                         |     |
| <p>Insonning hayot muhiti tushunchasi. Inson hayot muhiti elementlarning munosabatlari. Hayot muhiti va mehnat muhiti munosabatlari. Inson hayot muhitining sifati. Ekologik inqiroz va uni bartaraf qilish imkoniyatlari.</p> <p>Asosiy metodik tamoyillar. Insonning hayot muhiti munosabat. Ekologik</p>  |                |               |                         |     |

inqiroz va ijtimoiy fikr. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi.

**3-mavzu. Ekologiyaning ijtimoiy muammolari.**

Ekologiya, madaniyat va ahloq, Ekologik ta'lim, uning maqsad va vazifalari. Ekologik ta'lim turlari, Ekologik ongning shakllanishida ekologik ta'lim va tarbiyaning roli va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'lim va tarbiyani amalga oshirish muammolari.

**4-mavzu. Inson hayot muhitini muhofaza qilish va yaxshilash borasidagi hamkorlik. Ijtimoiy ekologiyaning mintaqaviy muammolari.**

Xalqaro hamkorlikning ijtimoiy-ekologik-jihatlari. Xalqaro ekologik hamkorlikdagi asosiy tendensiyalar. Ijtimoiy-ekologik muammolari hal qilishda xalqaro hamkorlikning roli. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-ekologik muammolari hal qilish borasidagi xalqaro hamkorligi. Mintaqaviy ijtimoiy-ekologik muammolarga umumiy tarif. Markaziy Osiyoning asosiy ijtimoiy-ekologik muammolari. Orol va orolbo'yi muammolari. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-ekologik muammolari va ularni hal qilish masalalari.

**5-mavzu. Insonlarning turli ekotenzorlari va yashash muhitlari.**

**Ekologik omillarning inson salomatligiga ta'siri.**

Insimlarni muhitga ekologik moslanishlari. Organizmlarning ekologik omillarning ta'siriga moslashuvi tirik turga xosligi. Insonlar va uning har bir vakilining fiziologik, ekologik mutanosibligi, ularni muhitda rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan bioekologik xususiyatlari. Atrof-muhit. Antropogeb omillarining inson sog'ligiga ta'siri. Tabiiy muhit o'zgarishlarining inson sog'ligiga ta'siri. Mutagen va konserogen moddalar ta'siri va oqibatlari.

**6-mavzu. Inson organizmining iqlimga moslashishi va harorat ekologiyasi.**

**Inson kasalliklarining ekologiyasi.**

Muhit harorati va uning inson organizmiga ta'siri. Inson tanasining fiziologik moslashishi, termoregulyatsiya. Maxsus fiziologik genotomik va ekologik muhitga moslashish qobiliyati. Insonlarning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy moslashishlari.

Insonda sodir bo'ladigan turli kasalliklarni ekologik aspekti va ularning kelib chiqish sabablari. Inson muhitning geografik fondini hosil qiluvchi elementlari shamol, namlik, yomg'ir, havo harorati, kabi omillar turli yuqumli kasalliklarning tarqalishida sabab ekanligi.

**7-mavzu. Inson populyatsiyasining demografiyasi.**

Inson populyatsiyasining qalinligi ekologik omillar, ta'siriga bog'liqligi. Yashash joyining iqlimi, tuprog'i, suvi, rel'efi, shu yerning o'simlik hayvonlar dunyosining xilma-xilligi va boyligi yashash joyidagi tabiiy boyliklardan foydalanish madaniyati darajasiga bog'liqligi. Yer tuzida aholi sonining o'sishi, ularning tabiiy muhitiga ta'siri, muhitning ifloslanishining ortib bishi, tabiiy boyliklarning ko'plab sarflanishi inson salomatligiga turli havflarning tug'ilishi va boshqalar.

### 8-mavzu. Insonga ta'sir qiluvchi hozirgi zamon ekologik omillar.

Insonga salbiy ta'sir qiluvchi ekologik omillar: daryolarning toshishi, engiz okeanlar to'qlinlarining ko'tarilishi, atrof maydonlarni suv bosishi, qirg'oqlarni yuvib ketishi, qurg'oqchilik natijasida qishloq xo'jalik ekinlari hosilining pasayishi, yer qimirlashi natijasida qishloq va shaharlarning buzilishi, insonlarning nobud bo'lishi, vulqonlarning salbiy ta'siri, o'rmonlarning yonim ketishi va boshqalar.

### 9-mavzu. Insonning tabiatning ekologik holatiga salbiy ta'siri.

Inson o'z faoliyati bilan tabiatga turli salbiy ta'sirlar ko'rsatishi: ovchilik natijasida hayvonlarning kamayishi, yerlarni haydash natijasida yaylovlarning buzilishi, tabiiy boyliklardan ko'p foydalanish natijasidagi ta'sir, geologik qidiruv ishlari, sanoatning ta'siri, o'simlik va hayvon populyatsiyalaridan noratsional foydalanish natijasida ularning kamayib borishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, chollanish jarayonining kuchayishi va boshqalar.

### 10-mavzu. Inson tabiatda tiriklikni yo'qotuvchi va tiklovchi kuchdir.

Inson faoliyati ta'sirida yer yuzida ko'plab flora va fauna vakillarining yo'qolib borayotgani, Turlarning yo'qolishida: ovchilik (otish va tutish), organizmlar yashash joyining buzilishi (yong'in o'rmonlarning kesilishi, yerlarning o'zlashtirilishi), yerlarni suv bosishi, kasallik, tabiiy ofatlar ta'siri. Tabiatni muhofaza qilish qonuni. Biosferadagi tirik organizmlarni saqlash, ularni kelajak avlodlarga qoldirish asosiy yo'llari. Ular yashaydigan joylarni buzmaslik va muhofaza qilish, qo'riqxonalar buyurtmalar, milliy bog'lar tashkil qilish va noyob turlarni ko'paytirish va boshqalar.

### 11-mavzu. Inson yashash muhitini muhofaza qilishning ekologik huquqiy asoslari.

Tabiat bilan inson, jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, ularning rivojlanishi davlatning huquqiy qoidalariga qayd qilinishi. Har bir inson toza, sog'lom va go'zal tabiatdan, tabiat elementlari, yer, suv, o'rmon, o'simliklar qoplami va hayvonlardan foydalanish huquqiga ega ekanligi. Tabiat rivojlanishi, tabiiy resurslar, havo, suv, yer boyliklari va boshqalar davlat va uning huquqiy tashkilotlari tomonidan nazorat qilinishi.

### 12-mavzu. Fan texnika inqilobining jamiyat va tabiatning, inson va atrof-muhitning o'zaro munosabatiga ta'siri.

Hozirgi rivojlangan jamiyatdagi mahalliy, mintaqaviy va umumijamoiy ijtimoiy siyosiy ekologik muammolar. Biosfera va noosfera Haqidagi ta'limot

**13-mavzu. Umumiy ekologiyadan Ijtimoiy ekologiyaga o'tish zarurati.** Ijtimoiy ekologiya fanining predmeti va vazifalari. Ekologik tizim. Biogeotsenoz. Biogeotsenozni takibi. Atrof-muhit. Inson va atrof-muhit. Ekologik omillar va

ularni ta'siri

### 14-mavzu. Orol va Orolbo'yi: ijtimoiy ekologik inqirozning rivojlanishining asosiy omillari.

Orol dengizining qurigan tubining hozirgi holati. Orol dengizi ijtimoiy ekologik inqirozning asosiy sabablari va oqibatlar. Orol bo'yi ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qilishda O'zbekistonning va boshqa Markaziy Osiyo mamalakatlarining o'rni. Orolbo'yi mintaqasining barqaror rivojlanishini ta'minlashda xalqaro hamkorlik.

### 15-mavzu. Yirik (kata) shaharlarning ijtimoiy-ekologik muammolari.

Shahar muhitining ijtimoiy-ekologik muammolari. Urbanizatsiya va katta shahar (megapolislar) atrof-muhiti holati. Shaharlar ijtimoiy ektizimlariga sanoat va taransportning ta'siri. Shahar muhitining optimallashtirishining asosiy yo'nalishlari.

### III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

#### Amaliy mashg'ulotlari

1. Ijtimoiy ekologiya fanining tushunchasi, maqsadi, vazifalari, ekologik fanlar o'rtasida tutgan o'rni
2. Ijtimoiy ekologiya fanining tizimi va tasniflanishi, predmet va oqibati, metodlari va metodologiyasi, prinsip va qoidalari
3. Milliy ijtimoiy ekologik muammolar va ularni bartaraf qilish yo'llari
4. Inson va atrof-muhit tizimidagi munosabatlar xususiyati sog'lom insonga muhit omillarining o'zaro ta'siri mexanizmi, endemik kasalliklar
5. Atrof muhitning salbiy ta'siriga inson adaptatsiyasi, atrof muhit holati va O'zbekistonda inson salomatligi
6. Atrof muhit holatini baholash metodlari va inson salomatligi
7. Inson salomatligi va atrof muhit holatini optimallashtirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari
8. Inson jamiyati va tabiat orasidagi o'zaro munosabatlar.
9. Ekologik qayta qurish konsepsiyasi
10. Radioaktivlikning ortishi munosabati bilan jonli tabiatda va ijtimoiy munosabatlarida sodir bo'ladigan o'zgarishlar
11. Korxonalar va mehnat jamoasi darajasidagi ekologik muammolar
12. Mintaqa biosferasiga bo'lgan antropogen ta'sir dinamikasi
13. Inson omilini faollashtirishning ijtimoiy-ekologik va tabiiy-gigienik ko'rimlari
14. Ilmiy-texnika taraqqiyoti salomatlikning mahalliy, regional va global muammolari. Sanoat, transport, qishloq xo'jaligining ta'siri.
15. Ekologiyaning yangi tizimi. Modullashtirish natijalari.

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ishlash uchun talabalarga ma'lumotlar mavjud bo'lgan turli adabiyotlar hamda Internet saytlaridan foydalanish tavsiya qilinadi. Bundan tashqari zarur hollarda laboratoriyadagi mavjud asbob va uskunalar ham ularni yaxshi biluvchi mutaxassis va o'qituvchi ishtirokida talabalar ixtiyoriga beriladi. Mustaqil ishlash uchun beriladigan mavzular va ishlar individual harakterda bo'lib, talabalarining fan bo'yicha ma'lumotlarini chuqur o'rganishga qaratilgan.

##### Mustaqil ta'lim uchun yavsuya etiladigan mavzular

1. Havo muhitini gigiyenik harakteristikasi.
2. Havo muhitining fizik xususiyatlarini biologik umumsanitar ahamiyati.
3. O'zbekistonda aholini suv bilan ta'minlash muammolari.
4. Tuproqni sanitar-gigiyenik ahamiyati.
5. Inson salomatligiga pestitsidlar ta'siri.
6. Inson salomatligiga pestitsidlar ta'siri.
7. Organizmga turli stresslar ta'siri.
8. Urbanizatsiya va shahar ekologiyasi.
9. Chiqindilar va ularning ijtimoiy jihatlari.
10. Ijtimoiy ekologik muammolar.
11. Ekologik tizim. Biogeotsenoz. Beogeotsenozni takibi
12. A'trof-muhit. Inson va atrof-muhit. Ekologik omillar va ularni ta'siri
13. Ekologik tizimda gomeostaz holati va suksessiyasi.
14. Ijtimoiy ekologik muammolari hal etishda ekologiyaning o'rni
15. Ijtimoiy ekologiyaning fan sifatida shakllanishi
16. Ijtimoiy ekologiyaning boshqa fanlar bilan munosabati va ahamiyati
17. Ijtimoiy ekologiyaning asosiy qonunlari
18. Ijtimoiy ekologiyaning tadqiqot ob'yekti.
19. Inson ekologiyasining predimetri va vazifalari
20. Insonning shakllanishida ijtimoiy ekologik omillar rolini ortib borishi

#### V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Ijtimoiy ekologiya nazariy asoslari, davlatlarning ekologik imkoniyatlarini tabiiy resurslarni tejashda milliy energiya manbalaridan foydalanish tadqiqot uslublari; tabiiy resurslarini muhofaza qilishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari to'g'risida
- Dunyoning barcha shahar va sanoat hududlarida ekologik xavflarni ilmiy asosda tahlil qilishni va ularni hal qilishni, tabiatni va bioxilma-xillikni saqlash muammolarini shartlay olish, hozirgi zamon ekologik havflarini tahlil qilish va turli ekologik ko'rsatkichlarning ahamiyatini baholashni kabi bilimlarni *bilishi* va *ulardan foydalana olishi*;

"Ijtimoiy ekologiya" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba: ekologik xavflar fani nazariy asoslarini mukammal bilishi, ushbu fanning muammolari, global iqlim o'zgarishlari shartida ushbu fanning nechog'lik ahamiyati bo'yicha *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

#### VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
  - interfaol keys-stadilar;
  - amaliy mashg'ulot (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
  - guruhlarda ishlash;
  - taqdimotlarni qilish;
  - individual loyihalalar;
- jamo'a bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalalar.

#### VII. Kreditlarni olish uchun talabalar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.

##### Asosiy adabiyotlar.

1. Shodimetov YU. Ijtimoiy ekologiya Toshkent 2015.
2. Ergashev A.E., Ergashev T.A.-Inson ekologiyasi. "Chinor ENK". T.2009.215
3. Tursunov X.T., Shojalilov Sh.Sh., Egamberdiyeva L.Sh., v.b. Ekologiya Toshkent 2017.
4. Ergashev A., Ergashev T. -Ekologicheskaya bezopasnost. Sreda jizni cheloveka "Chinor ENK" t. 2007. 163s.

##### Qo'shimcha adabiyotlar.

1. Kogan A.B.-Ekologicheskaya fiziologiya cheloveka. 1990. 264 str
2. M.Abramatov, X.Zokirov "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish" // O'quv qo'llanma. - Toshkent, "PUBLISHING HIGH FUTURE" OK nashriyoti, 2024.-219 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi. (2023). A'trof-muhit holati to'g'risida milliy ma'ruza: O'zbekiston. Barqaror rivojlanish Xalqaro instituti.
4. O'zbekistonning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish to'g'risida Ixtiyoriy MILLIY HISOBOTI. Toshkent-2023.

##### Axborot manbalari

1. [www.hemis.ter.su.uz](http://www.hemis.ter.su.uz)
2. [www.unilibrary.uz](http://www.unilibrary.uz)
3. [www.student.ter.su.uz](http://www.student.ter.su.uz)
4. [www.lib.ter.su.uz](http://www.lib.ter.su.uz)
5. [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)